SAMARQAND VILOYATI NUROBOD TUMANI HOKIMI QARORI

141100, Nurobod tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 2-uy. Tel: (66) 633-16-34, (66) 633-21-65, e-mail: nurobod.t@exat.uz

2022 - yil 12 - oktabr 234-7-99-Q/22 Nurobod tuman hokimligi

Tumandagi umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatish to‘g‘risida

“Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 20-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 348-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-son qarori talablari ijrosi yuzasidan piyodalar xavfsizligini ta’minlash, transportlar tirbandligini oldini olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 hamda 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatilsin.

2. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Z.Suvonqulov) hamda tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi guruh katta inspektori (J.Parmonov)larga tumandagi umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatilishi bilan avtomobil yo‘li bo‘ylab avtomobillar harakatining o‘zgarishi munosabati bilan piyodalar va avtomobillar harakatini tartibga solish va nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (E.Pardayev), “Nurobod” gazetasi (N.Botirova) ushbu qarorni nashr etilishi, tuman hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari (N.Raxmonov) zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b **R.Ibragimov**